

XORAZM DAVRIY MATBUOT NASHRLARIDA IJTIMOYIY-IQTISODIY, SIYOSIY VA MADANIY HAYOTNING YORITILISHI

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti

Gulimova Karomat

Tarix yoʻnalishi 4-kurs talabasi

Annotasiya: Bu maqola Xorazm matbuoti tarixi uning qilgan ishlari bilan bogʻlik. Urush davridagi Xorazm matbuoti qilgan ishlari. Urushdan keying Faoliyati bilan bogʻlik.

Kalit soʻzlar: Xorazm Sh. Mirziyoev, matbuot, televidenie, radio, Oʻzbekiston Milliy teleradiokompaniya, Yosh kuch ,Xorazm haqiqati, “Inqilob quyoshi”

Аннотация: Данная статья посвящена деятельности Хорезмской типографии. В ней рассматривается деятельность Хорезмской типографии во время войны и в послевоенный период.

Ключевые слова: Хорезм Ш. Мирзиёев, пресса, телевидение, радио, Национальная телерадиовещательная компания Узбекистана, Сила молодежи, Хорезмская реальность, “Солнце революции”

Kirish. Xorazmda matbuot azaldan yaxshi rivojlanganligini koʻrishimiz mumkin. Xorazmda bosma nashrlar va matbuotning paydo boʻlishi va dastlabki bosqichlari XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Xorazmda bosma nashrlar va matbuot taraqqiyoti oʻzining dastlabki bosqichlariga kirdi. Bu jarayon jadidchilik harakati, maʼrifatparvarlik gʻoyalari va mahalliy ziyolilarning tashabbuslari bilan chambarchas bogʻliq edi. Dastlab Xiva xonligi hududida qoʻlyozma risolalar va toshbosma (litografiya) usulida tayyorlangan diniy, adabiy va tarixiy asarlar tarqalgan. 1918–1924-yillar Xorazm matbuoti tarixida alohida davr hisoblanadi bu yillarda “Inqilob sadosi”, “Xorazm haqiqati”, “Yangi Xorazm” kabi gazetalarning ilk sonlari chop etilgan. Xorazmda bosma nashrlar paydo boʻlishi, avvalo, toshbosma usuli (litografiya) orqali amalga oshgan. XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Xiva shahrida ilk litografik bosmaxonalar faoliyat yurita boshladi. Ular asosan

diniy risolalar, darsliklar, she'riy to'plamlar va xalq og'zaki ijodi namunalarini chop etish bilan shug'ullangan.

Mavzuga oid adabiyotlarning taxlili. Xorazmda ilk mahalliy matbuotning tashkil topishi Xorazm vohasidagi birinchi mahalliy gazeta "Inqilob quyoshi" 1920 yil 8 martda chop etila boshlanganligi bilan bog'liq bo'lib, u Xorazmdagi vaqtinchalik inqilobiy hukumat tashkil topganidan so'ng faoliyatini boshlagan. Gazeta avvalo Quyi Amudaryo havzasi xalqlarining siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy va ma'rifiy hayotidagi o'zgarishlarni yoritishga qaratilgan edi. Gazeta faoliyatida K.Boltaev, Q.Beregin, O.Safaeva, U.Qurboniy, M.Ismoilij, E.Devonov, X.Eshmuratov kabi partiya faollari hamda Faqiriy, Xorazmiy, Mutrib, Partav, Chokar, Mug'anniy, Soib Nazariy kabi yozuvchi va shoirlar faol ishtirok etgan. 925 yilga kelib gazeta oyiga 25 marta chop etilib, uning tiraji 8600 nushaga yetkazilgan. Shu bilan birga, O'zbekistondagi gazetalar faoliyati ikkinchi Butun O'zbekiston qurultoyida (1925) tanqid qilingan. Qurultoy materiallarida qayd etilishicha, gazeta idoralarining yetarli tashkil etilmagani, tajribali jurnalist kadrlar kamligi va partiya qo'mitalari tomonidan matbuot ishlariga yetarli e'tibor berilmaganligi ko'rsatilgan. 1927 yilda Qurbon Ollaberganov (Beregin) gazeta muharriri etib tayinlanib, 1929 yilgacha bu lavozimda ishlagan. Uning rahbarligi davrida M.Olloyorov, I.Habibiy, U.Qurboniy kabi iqtidorli jurnalistlar faoliyat ko'rsatishgan. Ular mahalliy qishloq va ishchi muxbirlari bilan hamkorlikni kengaytirib, gazeta atrofida ommaviy ijodiy muhit yaratishga muvaffaq bo'lishgan. Bu yillarda gazeta faoliyatida B.Rahmonov, A.Tagirov, J.Qalandarov, Sh.Bulatov, R.Majidiy, S.O'rozov kabi muharrirlar ham faol ishtirok etishgan. 1927 yilda Q.Beregin tashabbusi bilan o'tkazilgan matbuot konferensiyalari Xorazmda mahalliy matbuotning vazifalari va yo'nalishlarini belgilab bergan. 1930-yillar boshlariga kelib, «Inqilob quyoshi» gazetasi sho'ro mafkurasining asosiy tashviqot vositasiga aylandi. Gazeta atrofida 400dan ortiq qishloq muxbirlari birlashgan, ular orasida ayollar soni ham keskin oshgan (1930 yillarda 50 nafarga yetgan). Bu holat sovet hokimiyatining ayollarni ijtimoiy-siyosiy faoliyatga jalb etish siyosati bilan izohlanadi. 1931 yilda Xorazmda gazetalar tarqatilishi uchun maxsus kitob do'konlari tashkil etildi. Devoriy gazetalar qoshida muhbirlik va adabiy to'garaklar ish faoliyatini

yo'lga qo'ydi. Masalan, 1929 yilda tashkil etilgan "Yosh kuch" devoriy gazetasi qoshida 1931 yilgacha 30dan ziyod mahalliy muxbirlar tayyorlangan.

Tuman gazetalarining paydo bo'lishi va yosh kadrlar tayyorgarligi haqida so'z yuritilganda 1928–1931 yillarda Xorazm okrugida dastlabki tuman gazetari "Qommunachi" (Xiva), "Qurilish" (Xonqa), "Kolxoz yo'li" (Gurlan), "Shovot haqiqati" (Shovot) nashr etila boshladi. Bu nashrlar sho'ro mafkurasini qishloq aholisi orasida targ'ib qilishda muhim o'rin tutdi

1933 yildan boshlab gazeta va jurnallarga majburiy obuna tizimi kuchaytirilib, aholi orasida "Qizil O'zbekiston", "Kolxoz yo'li", "Yosh Leninchi", "Mushtum", "Yangi yo'l", "Kommunist" kabi nashrlar ommalashtirilgan. 1934 yilda yoshlarni sho'ro g'oyalariga sadoqat ruhida tarbiyalash maqsadida "Bo'l tayyor" gazetasi chop etila boshladi

1936 yilda Yangiariq tumanida "Lenin yo'li" gazetasi nashr etilgan bo'lib, bu paytga kelib Xorazm vohasida bitta viloyat va yettita tuman gazetasi faoliyat ko'rsatgan, umumiy muxbirlar soni 2500 nafarga yetgan.

Tadqiqot metodologiyasi bo'yicha quyidagilar olindi. Xorazmda matbuotning rivojlanishi. Va uning fioidiy jonkuyar ishchilari xorazm matbuotining taraqqiy etishi uning yuksalishi keyinchalik tumanlarda ham rivojlanib ketishi uning kelajakdagi ishlaridan ham dalolat beradi. Xususan shu paytdagi ilk matbuot gazetasi hisoblangan Inqilob quyoshi gazetasi xorazmning matbuotining rivojlanish poydevori bo'ldi.

Taxlil va natijalar. Xorazm matbuotining tarixi aytganimizdek uzoq davrga borib tarqaladi. Xiva xonligida Bosh vazir Islomxo'ja nomi ham aytib o'tishimiz kerak xivada matbuot rivojlanishida bevosita rossiya imperiyaning ham ta'siri katta ekanligini ko'rishimiz mumkin. Xivadagi ilk matbuot gazetasi „Turkestanskiy vestnik“ turkistondagi yangiliklardan xabar berib turgani ko'rishimiz mumkin.

Xivada matbuotning rivojlanishida xivalik jadidlar ham katta ishlarni qilgan. Xususan Polvoniyoz Hoji Yusupov, Bobo oxun Salimov, Kalandar Yoqubov kabi ziyolilarning tashabbusi bilan joriy qilindi. Ularning maqsadi o'lkada ilm, ma'rifat va milliy ongini oshirish edi. Jadidlar xalqni ongini oshirish uchun albatta matbuotdan juda

yaxshi foydalanishdi xususan „Yosh xivaliklar” bu yo’nalishda gezeta matbuot va bir qancha yaxshi ishlarni amalga oshirdi.

Xulosa va takliflar. Xorazmda matbuoti tarixini yaxshilab o’rganish;

- Xorazm matbuotining fidoiy xodimlarining tarixi o’rganish. Va ular haqida ilmiy ishlar va maqolalar yozish.

- Xorazm matbuotini zamonaviy texnikalar bilan jihozlash

Foydalanilgan adabiyotlar

- 1.Алимова, Г. (2020). Ўзбекистон матбуоти тарихи. Тошкент: Фан.
2. Бахтиёрлов, А. (2005). Ўзбек ёзуви ва алифбо ислохотлари тарихи. Тошкент: Фан.
3. Бекмухаммад У. (2024). “Хоразм матбуоти тарихи ва «Хорезмская правда»газетасининг юз йиллик анъаналари”. Ўзбекистон журналистикаси илмий журнали, №2, 15–20-б.
- 4 .Берегин, Қ. (1928). “Инқилоб куёши” фаолияти хақида.” Инқилоб куёши, №3